www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Buyuk allomamiz Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g‘oyasi

Shoberdiyeva Yulduz Ilhomjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika va san‘at fakulteti pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi ,email@shoberdiyevayulduz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek adabiyotiningning asoschisi, sheriyat mulkining sultoni ma‘rifatparvar shoir davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g‘oyasi masalalarining hozirgi kunda yoshlar ta‘lim- tarbiyasiga ta‘siri.

Kalit so‘zlar: ta‘lim-tarbiya, komil inson, insonparvarlik.

Аннотатция: В данной статье рассматривается влияние гуманизма в творчестве Алишера Навои, основоположника узбекской литературы, султана поэзии, просвещенного поэта и государственного деятеля, на воспитание современной молодежи.

Ключевые слова: образование, совершенный человек, гуманизм.

Abstract: In this article, the influence of humanitarianism in the works of Alisher Navoi, the founder of Uzbek literature, the sultan of poetry, the enlightened poet and statesman, on the education of young people today.

Key words: education, perfect person, humanitarianism.

Buyuk ma‘rifatparvar allomamiz Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo‘luvchi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, ta‘limiy- axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, yo‘llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiy asarlarida zamonaviy pedagogika fani asoslari qatorida muhim o‘rin tutuvchi omil o‘z-o‘zini tarbiyalash masalasining mohiyati ham yoritiladi. Alisher Navoiy hazratlarining bizga qoldirgan boy adabiy merosi odamlarning ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma‘nan va ruhan barkamol bo‘lib tarbiya topishda muhim o‘rin tutadi.

Alisher Navoiy inson o‘z ma‘naviy va ruhiy tabiati bilan boshqa mavjudotlardan ajralishi, har bir insonning insoniylik darajasi uning ma‘navuy yuksalish darajasi bilan belgilaydi. Buyuk mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy o‘zining asarlarida, dostonlarida ummuminsoniy ruh bilan sug‘orilgan komil inson, odil hukmdor haqidagi g‘oyalarini ilgari surdi.

Alisher Navoiyning betakror va boy ijodini adabiyotshunos olimlar o‘rganib, talqin qilib kelishar ekan, mutafakkir ijodining asosiy, qismi inson kamoloti, komillik sari intilishini tarannum etadi. Uning insonparvarlik, ta‘lim-tarbiya, axloq va xulq-odob qoidalari, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, yuksak insoniy qadriyatlar to‘g‘risidagi dono fikrlari hozir ham o‘zinig tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Navoiyning har bitta asari chuqur ta‘limiy o‘gitlarga, boy tarboyaviy imkoniyatlarga ega. Ular aqlni toblaydi, inson qalbining go‘zallashishiga sabab bo‘ladi. Navoiy ijodida eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g‘oyalarining o‘ziga hoslik tomoni tomoni shundaki, o‘zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg‘unlashib ketganligidir.

Shoirning „Xazoyin ul-maoniy ‘‘ devonidagi quyidagi baytlari diqqatga sazavor:

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Muruvvat - barcha bermakdur, yemak yo‘q,

Futuvvat - barcha qilmakdur, demak yo‘q.

Mazkur baytda juda katta yuksak va salmoqdor insonparvar g‘oyalar ilgari surilgan. Navoiy shu ikki misrasidayoq Sharq tasavvuf ta‘limotining eng ilg‘or oqimlaridan biri:

-javonmardlik sulukning dasturiy qoidalarini qoyilmaqom darajada ifodalab berolgan. Javonmardlik namoyondalari muruvvat ahli, futuvvat ahlidirlar. Ularni Navoiy o‘z asarlarida ,, axiy‘‘ nomi bilan ham yuritgan. Muruvvat ahli eng oliyjanob toifa sifatida tasvirlangan.

Navoiyning insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan vatan va vatanparvarlik haqidagi she‘rlari ham faqat o‘sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki, bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo‘lishi tabiiydir. U o‘z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiiste‘mol qilishlarini va ta‘magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o‘z himoyasiga olgan.

Xulosa : Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Alisher Navoiy haqida so‘z borganda u kishining asarlaridagi komil insonni shakllantirish uchun ta‘lim- tarbiya jarayoniga e‘tibor berish kerakligi uqtirib o‘tilgan. Navoiyning har bitta asarini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak bolaga ta‘lim berishdan, avval ularga tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish eng muhim vazifalardan biri ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy pedagogika. – T.: ,, Fan va texnologiya‘‘, 2018, 528 bet. Mualliflar : R.A.Mavlonova , N.H.Rahmonqulova, K.O.matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov
2. Qayumov A. Saddi Iskandariy. Toshkent , 1980-yil, o‘zbek tilida
3. N.Komilov.tasavvuf .-T.:Movoraunnahr-O‘zbekiston, 2009.
4. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr(nasriy bayoni bilan). – T.:G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2005.